

AQSH VA XITOIY O'RTASIDAGI IQTISODIY RAQOBATNING SABAB VA OQIBATLARI

Dilnoza Xudoyberganova
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Siyosatshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: dilnozakhudoyberganova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada AQSH va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi savdo urushining kelib chiqish sabablari, asosiy bosqichlari hamda uning global iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Savdo cheklovlari, boj tariflari va texnologik raqobat masalalari asosiy e’tibor markazida bo‘lib, mazkur jarayonning rivojlanayotgan davlatlar uchun oqibatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: savdo urushi, boj tariflari, proteksionizm, global iqtisodiyot, AQSH, Xitoy.

Introduction

Annotation

This article analyzes the causes behind the emergence of the trade war between the United States and the People’s Republic of China, its main stages, and its impact on the global economy. Trade restrictions, tariff measures, and technological competition are the primary focus, and the consequences of this process for developing countries are also examined.

Keywords: trade war, tariffs, protectionism, global economy, United States of America, China.

Аннотация

В данной статье анализируются причины возникновения торговой войны между Соединёнными Штатами Америки и Китайской Народной Республикой, её основные этапы, а также её влияние на мировую экономику. Основное внимание уделяется торговым ограничениям, тарифным мерам и технологической конкуренции, а также рассматриваются последствия данного процесса для развивающихся стран.

Ключевые слова: торговая война, тарифы, протекционизм, мировая экономика, Соединённые Штаты Америки, Китай.

Kirish

Bugungi kundagi xalqaro iqtisodiy jarayonlar sabab ayrim olimlar vaziyatga “deglobalizatsiya” yoki “sekin globallashuv” deb ta’rif beradilar. Bu jarayon savdo orqali o‘zaro bog‘liqlikni kamaytirish yoki uni orqaga qaytarish orqali global integratsiyaning susayishini anglatadi.[1] Bunday orqaga chekinishning asosiy sabablaridan biri 2018-yilda Tramp ma’muriyati davrida boj tariflari joriy etilishi natijasida yuzaga kelgan AQSH va Xitoy o‘rtasidagi geosiyosiy keskinlikdir. Deglobalizatsiya murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib,

uning oqibatlarini turli mamlakatlar va mintaqalarda har xil namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli, AQSH–Xitoy savdo urushi doirasida kuchaygan savdo proteksionizmining global hamda mintaqaviy ta'sirlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

AQSH–Xitoy savdo urushi 2018-2019-yillar davomida bir qator boj tariflari to'liqlari shaklida rivojlandi. 2020-yil yanvarida ikki davlat savdo ziddiyatlarini kamaytirish maqsadida “Birinchilik bosqichi” kelishuvini imzoladi, ammo boj tariflari 2021-yil oxirigacha amalda qolgan edi. [2] AQSH–Xitoy savdo urushining kelib chiqishi murakkab jarayondir. Oxirgi o'ttiz yilda AQSH–Xitoy munosabatlarining strategik va iqtisodiy muhiti sezilarli darajada o'zgardi. Iqtisodiy jihatdan, Xitoyning iqtisodiyoti har yetti yilda ikki barobar o'sib, AQSH bilan iqtisodiy qudratdagi farqni kamayishda davom etdi. 2000-yilda Xitoyning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) AQSHning YaIMi taxminan 10 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 78 foizga yetdi. Sotib olish qobiliyati bo'yicha esa Xitoyning iqtisodiyoti AQSHnikidan hatto 15 foizga katta.[3] Xitoyning iqtisodiy qudratdagi tez o'sishi AQSHning iqtisodiy o'sish sur'ati bilan keskin qarama-qarshilik hosil qildi. AQSHning global iqtisodiyotdagi ulushi Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyingi o'n yilda taxminan yarmidan bugungi kunga kelib esa atigi olti foizgacha kamaygan.

Inflyatsiyani hisobga olganda, oxirgi o'ttiz yilda o'rtacha amerikalikning hayot darajasi deyarli o'zgarmagan. Xitoyning tezkor iqtisodiy o'sishi AQSHning global hukmronligiga tobora ko'proq tahdid solayotganligi sababli, ikki qudrat davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan mojaro oldini olishi mumkinmi degan qizg'in munozaralar yuzaga keldi. Ushbu nazariya bo'yicha, o'sib borayotgan davlat qudratining hukmron AQSHning ustunligiga tahdid qilganda, halokatli to'qnashuvning oldini olishning iloji yo'q.

Ba'zi Xitoy olimlarining fikriga ko'ra, Xitoyning milliy iqtisodiy qudrati 2014-yilda AQSHnikidan oshib ketgan.[4] Xitoy dunyoning arzon ishlab chiqarish markazi bo'lib xizmat qilmoqda va eksportga yo'naltirilgan global texnologik markazga aylanishi davom etmoqda. Empirik tadqiqotlarda esa Xitoyning iqtisodiy ta'siri haqiqatan ham oshganini ko'rsatgan bo'lsa-da, AQSH hali ham barcha aksiyalar, kredit, energetika va tovar bozorlarida yetakchi pozitsiyani egallab turibdi va global iqtisodiyotda dominant qudrat sifatida qolmoqda. Shu sababli, ilmiy adabiyotlarda ikki iqtisodiyotning miqyosi bo'yicha yagona tushuncha hali mavjud emas.

AQSHning global iqtisodiyotdagi mutlaq ustunlikka bo'lgan intilishi o'z navbatida Xitoy bilan ikki tomonlama savdodagi o'sib borayotgan nomutanosiblik, Xitoydagi yuqori texnologiyali kompaniyalarning raqobatbardoshligining oshishi va Xitoy investitsiya eksportining ko'payishi bilan to'qnash kelmoqda. AQSH rasmiylari Xitoyni adolatsiz savdo siyosatini olib borishda, savdo liberallashtirish va JST a'zolidan foyda olishda ayblaydilar, shu bilan birga Xitoy o'z ichki bozorini xorijiy raqobatdan himoya qilish uchun subsidiya ajratadi va valyuta devalvatsiyasi orqali eksportni rag'batlantiradi. AQSH Xitoyni amerikalik kompaniyalardan ilmiy va texnologik bilim hamda texnologiyalarni o'g'irlashda, intellektual mulk huquqlarini buzishda va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga e'tibor bermaslikda ayblaydi.

Tarixidan ma'lumki, savdo urushlarida g'olib bo'lmaydi degan fikr mavjud. Har ikki tomon ham zarar ko'radi, ammo AQSH savdo ziddiyatlarini hal qilish bo'yicha muzokaralarda g'alaba qozonish va boshqa davlatlarni orqaga chekinishga majburlash bo'yicha uzoq muddatli

tajribaga ega. Xitoy ham kelishuvga tayyorligini ko'rsatdi, ikki tomonlama savdodagi nomutanosiblikni 200 milliard AQSH dollariga kamaytirish va AQSH kompaniyalari uchun ichki bozorini liberallashtirishga rozilik bildirgan. Biroq, AQSH tomonidan qo'yilgan talablar va sanksiyalar Xitoyning sanoat siyosatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. AQSH rejaning dastlabki muvaffaqiyatlari amerikalik texnologiyalardan foydalanish natijasida amalga oshirilganiga ishonadi va Xitoy sanoatlari uchun ushbu texnologiyalarga kirishni cheklashga harakat qiladi. Mazkur jarayonning iqtisodiy oqibatlari bilan birga siyosiy motivatsiyalarni tushunish ham muhimdir. Ushbu voqea so'nggi globallashuvga qarshi reaksiyalar bilan bir qatorda yuz berdi. 2016-yildagi Buyuk Britaniya Brexit referendumidan ikki yildan o'tib, AQSHning Tinch okeani hamkorligidan chiqishidan keyin hamda AQSHning Jahon Savdo Tashkiloti Apellyatsiya organiga sudyalarni tayinlashni to'sishidan bir yil oldin boshlanadi.[5] Ushbu voqealar, boshqa omillar bilan bir qatorda, Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi o'sishi va texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan tengsizlik fonida yuzaga keldi. Ushbu vaziyatda, agar savdo siyosati ayrim guruhlariga foyda keltirish maqsadida qo'llansa, u kuchli saylov vositasiga aylanishi mumkin. 2016-yildagi Tramp prezidentlik kampaniyasi aynan Xitoyga boj tariflari qo'yish orqali anti-globallashuv platformasida o'tkazilgani sababli saylov motivatsiyalari sezilgan edi.

Ayrim olimlar bu vaziyatni AQShning proteksionistik harakatlarining sabablari, faqat Xitoyga qarshi emas, AQShning o'z manfaatlari nuqtai nazaridan ichki va tashqi omillar sifatida qaraydi.[6] Ichki ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qilish umumiy iste'molni kamaytirishi mumkin, ammo bu asosan tariflar oshirilgan po'lat va alyuminiy mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashdan tashqari, AQShning doimiy passiv hisob-balansi ham ichki omil sifatida qaralishi mumkin. Xitoy bilan o'zaro savdo AQShning hisob-kitob balansidagi ortib borayotgan defitsitga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi.

Tarixan eng katta savdo urushlari xalqaro savdo tizimining o'zgarishiga, moliya bozorlarining sekinlashishiga olib kelgan. Kelgusida jahon mamlakatlari AQSh yoki Xitoy tomonini qo'llab-quvvatlaydigan ikki guruhga bo'linishi, shuningdek, iqtisodiy kattaittifoqlar va mintaqaviy valyuta zonalarini shakllantirishi mumkin. Osiyoning globalizatsiya jarayonlarida hamda global yetkazib berish zanjirlarini rivojlantirishdagi roli kuchayishi kutilmoqda. AQSh asosiy raqibini zaiflashtirishga va xalqaro maydonda, xususan iqtisodiyot, siyosat va milliy xavfsizlik sohalarida ustunligini saqlashga intiladi.

AQShning amaldagi tashqi savdo siyosati Xitoy Xalq Respublikasining hanuzgacha tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan iqtisodiy o'sishini va uning jahon iqtisodiyotidagi ortib borayotgan ahamiyatini sekinlashtirishga qaratilgan. Xitoy hukumati esa o'z navbatida robototexnika, biotexnologiya va sun'iy intellekt sohalarida yetakchilikka erishishni maqsad qilgan. U yuqori texnologiyali sanoatlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi hamda AQShning Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish jarayonini to'xtatish yoki sekinlashtirishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralarni ko'radi.

Shu bilan birga, ikkala mamlakatning umumiy iqtisodiy manfaatlari nizolardan ko'ra muhimroq hisoblanadi. Ushbu davlatlar iqtisodiyotining o'zaro bog'liqligi yangi muzokaralarga olib keldi, natijada yangi savdo kelishuvi imzolaniishi kutilmoqda. Yangi AQSh-Xitoy savdo

kelishuvida shunday yangi savdo tiziminazarda tutilishi mumkin. U nafaqat tariflar, kvotalar va ruhsatnomalar kabi an'anaviy savdo vositalarini, balki boshqa tartib-qoidalarni, shu jumladan intellektual mulkni himoya qilish, texnologiyalarni yetkazish va Xitoyning ishlab chiqaruvchilar hamda eksportchilarga beradigan davlat subsidiyalarini ham tartibga soladi. Shuningdek, yangi kelishuv savdo bilan bog'liq bo'lmagan masalalarni ham qamrab oladi, masalan, AQSh kompaniyalarining Xitoy bozoriga kirish huquqlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, AQShning savdo hamkorlariga, xususan Xitoy ga nisbatan proteksionistik harakatlari nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy o'lchamga ham ega. AQSh rahbarlari Xitoyni kelajakda asosiy strategik raqib sifatida belgilashgan. Shuning uchun AQSh bilan savdo bo'yicha turli cheklovlar va Xitoyning iqtisodiy o'sishini sekinlashtirishning boshqa usullari Xitoyning siyosiy qudratini oshishini ham sekinlashtirish vositalari sifatida qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2023/02/08/charting-globalizations-turn-to-slowbalizationafter-global-financial-crisis>
2. Bown, C. P. "How the United States Marched the Semiconductor Industry into Its Trade War with China," East Asian Economic Review, 2020. 24, 349–388.
3. Allison, Graham, Nathalie Kiersznowski, and Charlotte Fitzek. "The Great Economic Rivalry: China vs. the US." Harvard Kennedy School Belfer Center for Science and International Affairs paper, March, 2022. https://www.belfercenter.org/sites/default/files/files/publication/GreatEconomicRivalry_Final.pdf
4. D. Zhang, L. Lei, Q. Ji, A.M. Kutan, Economic policy uncertainty in the US and China and their impact on the global markets. Economic Modelling, 2019. 79, 47-56
5. Pierce, J. R. and P. K. Schott. "The Surprisingly Swift Decline of US Manufacturing Employment," American Economic Review, 2016. 106, 1632–62.
6. Y.A. Savinov, A.N. Zelenuk, E.V. Taranovskaja, G.A. Orlova, A.V. Skurova, Increased protectionism in US trade policy. Russian Foreign Economic Bulletin, 2019 (1), 36-51